

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI



**10.00.10 – MATNSHUNOSLIK VA ADABIY MANBASHUNOSLIK IXTISOSLIGI  
BO'YICHA TAYANCH DOKTORANTURAGA "MUTAXASSISLIK" FANIDAN  
QABUL IMTIHONI DASTURI**

Toshkent - 2024

Dastur Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashida ko‘rib chiqilgan va tasdiqlangan (2024-yil 5-oktabrdagi 2 - sonli bayonnomasi)

Tuzuvchilar:

Q. Sodiqov – filologiya fanlari doktori, professor

M. Eshmuhamedova – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

J. Jo‘rayev – filologiya fanlari doktori, dotsent

R. Alimuxamedov – filologiya fanlari doktori, dotsent

## KIRISH

Mamlakatimizda oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlashning yangi tizimi joriy etildi. Doktorlik dissertatsiyalariga talablar oshdi. Bunga ko‘ra yosh izlanuvchilarni saralab olish, ularga mutaxassislik bilimlarini chuqur o‘rgatish talab etiladi. Fan dasturlari ham, shunga muvofiq, keng qamrovli, chuqur o‘ylab tuzilmagi kerak.

Mutaxassislik (“matnshunoslik va adabiy manbashunoslik”) fanining ushbu imtihon dasturi Tayanch doktoranturaga o‘tuvchilar uchun 10.00.10 – Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik ixtisosligi bo‘yicha tuzilgan.

Dastur birinchi galda, izlanuvchining bakalavrlik va magistratura davrida olgan bilimlariga, shuning bilar bir qatorda, mustaqil izlanish jarayonida to‘plagan ko‘nikmalariga, qo‘sishimcha bilimlariga ham tayanadi. Chunki manbashunos va matnshunos oliy o‘quv yurtida o‘rgangan nazariy bilimlari bilan birga, shu sohada muayyan tajriba, ko‘nikmaga ham ega bo‘lmog‘i kerak.

Dastur ikki bo‘limdan tuzilgan bo‘lib, manbashunoslik tarixi, nazariysi va matnshunoslikning nazariy masalalarini o‘zida qamraydi.

Imtihon savollari ana shu dastur bandlaridan kelib chiqib tuziladi. Dastur so‘ngida ushbu fanni o‘zlashtirish uchun tavsiya etiladigan ilmiy kitoblar, shuningdek, mamlakatimizda adabiy manbashunoslik va matnshunoslik yo‘nalishida yoqlangan ayrim dissertatsiyalarning avtoreferatlari ham berilmoqda. Ular izlanuvchiga bo‘lg‘usi ilmiy ishlarida ham asqotadi deb o‘ylaymiz.

## FAN DASTURI

### **Manbashunoslik tarixi va nazariysi**

Manbashunoslik tushunchasi. Manbashunoslik – fan sifatida. Fanning vazifasi va doirasi. Tarix manbashunosligi, adabiy manbashunoslik, fan sohasi manbashunosligi (ilmiy asarlar manbashunosligi), ularning umumiy va o‘ziga yarasha qirralari.

Adabiy manbashunoslik va matnshunoslikning arxeografiya, paleografiya, arxivshunoslik, bibliografiya, epigrafika, kriptografiya, numizmatika, germenevtika singari yondosh sohalari.

Adabiy manbalar, adabiyot tarixi, nazariyasiga oid manbalarni qidirib topish, tartibga solish va ulardan foydalanish yo‘llarini o‘rganishda adabiy manbashunoslikning o‘rni.

Manbashunoslikning yo‘nalishlari va asosiy vazifalari. Amaliy va nazariy manbashunoslik. Nazariy yo‘nalish – yozma manbalarning vujudga kelishi va ularda realtarixiy jarayonlarning aks ettirilishi qonuniyatları; manbalarni izlab topish, tartibga solish va turkumlarga bo‘lish asoslarini ishlab chiqishi; manbalarni tadqiq qilish uslubini belgilab berishi. Amaliy manbashunoslikning manbalarning muayyan sohasi, bo‘limi, davri, masalasi yuzasidan ish olib borishi; qo‘lyozmalar fondi, arxiv, muzey, kutubxonalarda manbalarni to‘plash, saqlash va tavsiflash. Bu ishlarning keyingi ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun amaliy ahamiyati.

Manbalarning turlari. Manbalartasnifi. Toshbitiglar (epigrafik matnlar), teri, sopol, metall, yog‘ochlar va turli ashyolarga bitilgan matnlar. Manbalarning mazmuniga ko‘ra turlari. Tarix asarlari, ilmiy, rasmiy va diplomatik hujjatlar, diniy-falsafiy asarlar va adabiy manbalar.

Yozuv tarixi va nazariyasi. Yozuv va uni o‘rganuvchi sohalar: grafemika, paleografiya, epigrafika, numizmatika. Yozuvning paydo bo‘lishi. Piktografik yozuvlar. Misr, Shumer-Bobil (mixxat), Xett, Kanoniy (finikiy) yozuvlari. Alifboli (fonetik) yozuvning kelib chiqishi. Hozirgi yozuvlarning tarixiy ildizlari.

Markaziy Osiyoda eng qadimgi yozuv madaniyati: boxtariy (oromiy), boxtariy-yunoniy, avesta, qadimgi xorazmiy, sug‘d, kushon, kxaroshtxi, runiy, uyg‘ur, braxma, moniy yozuvlari haqida umumiy ma’lumot. Avesta, sug‘d, ko‘k turk, uyg‘ur, moniy yozuvlarida bitilgan obidalar.

Yozuv qurollari va ashyolari: tosh, teri, papirus, yog‘och, qog‘oz, qalam, dovit.

Turliyozuvdavadavrlardayuzagakelganmanbalar ochiqlamasi.

Turkiy adabiyotning eng qadimgi manbalari. Yunon (Gerodot, Polien asarlari va boshqalar) manbalarida ajdodlarimizning qadimiylarini qissalari. Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati, tarixi haqida chet el manbalarida keltirilgan ma’lumotlar.

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asari va uning qadimgi turkiy adabiyotni, turkiy xalqlar og‘zaki adabiyotini o‘rganishdagi ahamiyati. Urxun-yenisey obidalari turkiy yozma adabiyotning ilk namunalari sifatida. Yodgorliklarning janr, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari.

Uyg‘ur yozushi va uning yodgorliklari. Qadimgi turk-budda, turk-moniy, turk-nasroniy adabiyoti namunalari.

Sug‘d yozushi va uning yodgorliklari. Sug‘d diniy-falsafiy adabiyoti namunalari.

Islom va uning O‘rta Osiyoga kirib kelishi bilan bog‘liq holda shakllangan manbashunoslik, uning tarixiy taraqqiyoti. Qur‘on, Hadis va tafsir ilmi. Qur‘on va uning turkiy tarjimalari. Turkiy tafsirlar. Islom manbalarining ma’naviy, ma’rifiy-tarbiyaviy ahamiyati.

Klassik adabiyotimiz namoyandalarining asarlarini manbashunoslik nuqtai nazaridan o‘rganish.

Adabiyotshunoslikka oid manbalar. Tazkira va bayozlardagi, manoqib va holotlardagi, ilmi balog‘a, ilmi aruz, ilmi bade’, ilmi qofiyaga bag‘ishlangan asarlardagi muqaddima va debochalar.

Kitobat san’ati. Markaziy Osiyoda qog‘oz ishlab chiqarish va kitob yaratish tarixi. Qadimgi kitob turlari: o‘rama qog‘oz shaklidagi kitob, potxi kitob, jild kitob, daftar, varaqqa bitilgan matn. Kitobat ishi va naqqoshlik san’ati. Xattotlik san’ati. Hirot, Samarqand, Buxoro xattotlik maktablari.

Qadimgi Sharq ilmiy-madaniy markazlarida kutubxonachilik, kitob yig‘ish va uni saqlash an’analari. Ibn Batuta va Buxoro kitob xazinasi. O‘rta asrlar kitob xazinalari. XIX asr oxirida (1870 yil) Toshkentda qo‘lyozmalar fondining tashkil etilishi. O‘zR FA ShI va Diniy boshqarma qo‘lyozmalar fondi.

Qo‘lyozma va toshbosma kitoblar fondi. Fond materiallari ustida ishlash. Qo‘lyozma va toshbosmalarni dastlabki ko‘rib chiqish, ularni ilmiy yozib olish, tavsiflash va kataloglashtirish. O‘zR FA ShI va O‘zR FA Adabiyot muzeyi nashr etgan kataloglar. Dorn katalogi (Peterburg davlat xalq kutubxonasi). Qo‘lyozma va toshbosma kitoblar tavsifi haqidagi hamda xattotlarning faoliyatini yorituvchi nashrlar.

Qo‘lyozmalarni tavsiflash. Tavsif turlari. Bosilib chiqqan monografik tavsiflar tahlili.

Qo‘lyozmalar fondini boyitish. Davlat fondlari, ularda saqlanayotgan qo‘lyozmalar. Shaxsiy arxivlar. Aholidan qo‘lyozma va toshbosma kitoblar sotib olish. Yangi manba va nusxalarni izlab topish. Chet mamlakatlar fondidagi manbalarni O‘zbekiston fondlariga,

ilmiy markazlar va o‘quv yurtlariga jalg etish. O‘zbek manbashunos va matnshunos olimlarining bu yo‘nalishdagi xizmatlari. Chet ellarda chiqarilgan kataloglar. Hindiston, Xitoy, Eron, Turkiya, Misr, Rossiya, G‘arbiy Yevropa mamlakatlari fondlaridagi qo‘lyozma merosimiz haqida umumiy ma’lumot. Ota-bobolar merosini o‘rganishda chet el fondlarida saqlanayotgan arxiv materiallarining o‘rni va ahamiyati.

Manbashunoslik tadqiqoti olib borishning ilmiy mezonlari. Qo‘lyozma manbalarni birlamchi tavsiflash: asarning nomi, muallifi, kotibi, xat turi, yuzaga kelgan vaqt, yozilgan materiali, qo‘lyozmaning o‘lchami, hajmi, sahifalardagi satrlar miqdori va hokazolarni aniqlash. Turli davr yozma manbalari uchun xos bo‘lgan tashqi belgilar.

Qo‘lyozmalarni monografik taviclash; uning o‘ziga xos belgilar.

Manbashunoslik tadqiqotlari yo‘nalishlari. O‘zbek xalq kitoblari qo‘lyozmalarini o‘rganish. Sharq xattotlik va kitobat san’atini o‘rganish, Sharq miniatyura san’atini o‘rganish. Matnshunoslik tadqiqotlari va qo‘lyozmalarni nashr ettirish.

Manbashunoslik tadqiqotlarining matnshunoslik tahlilidagi o‘rni. Arxiv tavsiflari, katalog to‘plamlaridan foydalanish. Ayrim shoir va adiblarning turli fondlardagi qo‘lyozmalari haqida tadqiqotlar. Xattotlar faoliyati xususidagi ilmiy kuzatishlar.

Hozirgi o‘zbek manbashunosligi. Uning sohalari. Rus va o‘zbek olimlarining bu sohaga qo‘shgan hissalari.

Yangi texnika asrida manbashunoslik. Kodikologiya fani. Qo‘lyozmalar fondlarining internetdagi saytlari. Internet saytlaridan manbalarni o‘rganish.

Manbashunoslikning dolzarb muammolari.

### **Matnshunoslik nazariyasi va amaliyoti**

Matn, tekst; matnshunoslik, tekstologiya tushunchalari. Matnshunoslik – fan sifatida. Uning predmeti va bosh vazifalari. Matnshunoslik – filologiyaning adabiy asarlar va tarixiy hujjatlar matnnini ilmiy-tanqidiy o‘rganish va nashr qilish bilan shug‘ullanuvchi fan. Matnshunoslikda tarixiy poetika, uslubshunoslik va ularning ishlatish o‘rinlari. Adabiy, tarixiy va ilmiy asarlar matnshunosligi.

Matnshunoslikning yo‘nalishlari: nazariy va amaliy matnshunoslik. Nazariy matnshunoslikning matnlarni ilmiy tadqiq etishning umumiyligi qonuniyatları, turli tarixiy bosqichlarda ularning o‘zgarib borishi xususiyatlari va matnni qayta tiklash prinsiplari kabi masalalarni qamrab olishi. Amaliy matnshunoslikning muayyan asar matni tarixini va uning manbalarini o‘rganish, yozilish davri, o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash, tarixiy-tadrijiylik yo‘li bilan muallif varianti va unga yaqin eng ishonchli variantni tanlab, shu variant asosida matnni tiklash bilan shug‘ullanishi.

Islom davri matnshunosligining yuzaga kelishi. Arab xat turlari-kufiy, muhakkak, suls, tavkiy, riqoya, rayhoniy, nasx, ta’liq, nasta’liq, shikasta. Arab yozuvida yaratilgan manbalar.

XI–XIV asr matnshunosligining xususiyatlari. Beruniy va qadimiy manbalar. XI–XII manbalarini nashrga taylorlash masalasi. Ahmad Yassaviy “Hikmatlar”i matni muammozi.

Temuriylar davri matnshunosligi. Hirot matnshunoslik maktabi. Boysunqur Mirzoning matnshunoslikka qo‘shgan hissasi. U tashkil etgan guruhning tanqidiy matnlar tuzishni yo‘lga qo‘yishdagi xizmati. Samarqand matnshunoslik maktabi. Adib Ahmad Yugnakiy “Hibatu-l-haqoyiq” asarining tayanch matni. Bu davrdagi xattotlar faoliyati.

Qo‘lyozma kitob haqida tushuncha. Matnshunoslikda kotibning mavqeい. Kitobat san’ati – xattotlik, musavvirlik, muzahhiblik (muhallo kitoblar), lavvoqlik va sahhoflik.

Xattotlik va oddiy nusxa ko‘chirish. Kitobning tuzilishi – basmala, hamd, unvon, matn, ichki unvonlar, hoshiya, poygir, kolofon.

Matnshunoslikning tahlil doirasi. Matntarixi. Asar (muallafa, ta’lif, kitob). Qo‘lyozma, qoralama (maxtuta, musavvada, tusvid). Nusxa. Muallif dastxati. Aslnusxa (nusxai asliya – protograf). Matn turlari va variantlari. Tahrir varianti. Til varianti. Alisher Navoiy “Majolisun-nafois” asarining ikki tahrir varianti haqida.

Asar va uning versiyalari tushunchasi (masalan, bir asarning sanskritcha-Xitoycha-qadimgi turkiy versiyasi; sug‘dcha-turkiy versiyalari; forscha-turkiy versiyalari singari).

Bir necha tilli matnlar (sug‘dcha-turkiy; sug‘dcha-turkiy-Xitoycha bitiglar, epigrafik matnlar) va ularni o‘rganish.

Yagona qo‘lyozma nusxada saqlangan asar matn ustida ishslash. Matn tarixini o‘rganish, uni o‘qish, turini aniqlash, asar yaratilgan davr, uning muallifi, qo‘lyozmasi ko‘chirilgan davrini, muhitini aniqlash.

Ko‘p nusxali matnlarni tadqiq etish. Nusxalarni topish, ularni xillash, nusxalarning aloqadorlik darajasini aniqlash, qiyoslash, qistirilgan va tushib qolgan o‘rinlarni aniqlash, ko‘chirilgan nusxalarni aniqlash, tekstologik alomatlar, asl nusxani topish. Amplifikatsiya (kengaytirish) va interpolyatsiya (qo‘shish) tushunchalari.

Matn tarixini kompleks o‘rganish. Matnning boshqa asarlar bilan birgalikda ko‘chirilgan nusxasi. Majmua kitoblarda kerakli asarni ajratib olish va uni boshq nuszalar bilan qiyoslab o‘rganish. Majmular, kulliyot va bayozlar, tazkiralari. Manoqib va risolalar.

Sharq mantshunosligida tarjima, sharh, bayon tushunchalari. Sharh kitoblari. Tarjima asarlar va ularning matnini o‘rganish. She’riy va nasriy tarjimalarning o‘ziga xos xususiyatlari. Tarjima nusxalarni o‘rganishda asliyatning tutgan o‘rni. Tarjima asarlarni asl matnga yaqinlashtirishda tarjimon mahorati.

Xalq og‘zaki ijodi asarlarini o‘rganish. Uning yozma adabiyot bilan aloqadorligi. Xalq kitoblari va dostonlari.

Sharq kitobatchiligidagi bosma nashrlarning (toshbosma kitoblarining) paydo bo‘lishi. Asarning toshbosma nusxalari. Nashr yoki tarjima uchun nusxa tanlash. Muhammad Rahimxon II ning matnshunoslikka qo‘shegan hissasi. Toshbosma nusxalarda muallif matni xatolari. Matnni atayin o‘zgartirish. Ularning qo‘lyozma nusxalar bilan muqoyasasi.

Matnlarni nashrga tayyorlash. Nashr turlari: ilmiy, ilmiy-ommabop hamda ommabop nashrlar.

Manbalarning ilmiy nashri va uni yaratish yo‘llari. Ilmiy nashrlar – transkripsiya, akademik nashr, faksimil nashr, ilmiy-tanqidiy matn va ularni nashrga tayyorlash prinsiplari. Ilmiy nashrni tayyorlashdagi tan olingan xalqaro normalar.

Ilmiy-ommabop nashrlar, uning boshqa nashrlardan farqli belgilari.

Ommabop nashrlar – transliteratsiya, tabdil, nasriy bayon va ularni nashrga tayyorlash prinsiplari. Nashrda asarlarning xronologiya, janr va mavzular bo‘yicha berilishi.

Nashr ma’lumotnomasi. Arxeografik kirish, matnshunoslik tadqiqi, matnni berish qoidasi, izohlar, ko‘rsatkich, qiyin so‘zlar lug‘ati, adabiyotlar ro‘yxati.

Matnshunoslik tadqiqotlariga umumiy bir boqish. Sharq manbalarini o‘rganishda G‘arbiy Yevropa, rus va chet el matnshunoslarining xizmatlari. Sharq manbalarining sharqshunoslikda, dunyo fanida tan olingan ilmiy nashrlari.

Hozirgi o‘zbek matnshunosligi, uning yutuqlari va o‘ziga yarasha muammolari. Yangi turdagи o‘zbek ilmiy matnshunoslik sohasi.

Mustaqillik davri matnshunosligi.  
Matnshunoslikning dolzarb muammolari.

### **Imtihon savollari**

1. Amaliy vanazariy manbashunoslik, ularning maqsad va vazifalari.
2. Yozuv tarixi va nazariysi.
3. Matn, matnshunoslik tushunchalari.
4. Manbashunoslikning yo‘nalishlari va asosiy vazifalari.
5. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asari va uning qadimgi turkiy adabiyotni, turkiy xalqlar og‘zaki adabiyotini o‘rganishdagi ahamiyati.
6. Ilmiy-ommabop nashrlar, uning boshqa nashrlardan farqli belgilari.
7. Manbashunoslik tushunchasi. Manbashunoslik – fan sifatida.
8. Yozuv qurollari va ashylari.
9. Matntarixini kompleks o‘rganish.
10. Tarix manbashunosligi, adabiy manbashunoslilik, fan sohasi manbashunosligi (ilmiy asarlar manbashunosligi), ularning umumiy va o‘ziga xos qirralari.
11. Yozuv va uni o‘rganuvchi sohalar: grafemika, paleografiya, epigrafika, numizmatika.
12. Matnning boshqa asarlar bilan birgalikda ko‘chirilgan nusxasi.
13. Manbashunoslik fanining vazifasi va doirasi.
14. Toshbitiglar (epigrafik matnlar), teri, sopol, metall, yog‘ochlar va turli ashylarga bitilgan matnlar.
15. Matnshunoslik – fan sifatida. Uning predmetivaboshvazifasi.
16. Adabiy manbashunoslilik va matnshunoslikning arxeografiya, paleografiya, arxivshunoslilik, bibliografiya, epigrafika, numizmatika, germenevtika singari yondosh sohalari.
17. Qadimgi turk-budda adabiyoti namunalari.
18. Yagona qo‘lyozma nusxada saqlangan asar matn ustida ishslash.
19. Matnshunoslikning tahlil doirasi.
20. Diniy-falsafiy asarlar va adabiy manbalar.
21. Matnshunoslikning yo‘nalishlari: nazariy va amaliy matnshunoslik.
22. Manbashunoslik tadqiqoti olib borishning ilmiy mezonlari.
23. Rasmiy va diplomatik hujjatlar manba sifatida.
24. Majmua kitoblarda kerakli asarni ajratib olish va uni boshqa nusxalar bilan qiyoslab o‘rganish.
25. Qo‘lyozmalarni monografik taviflash; uning o‘ziga xos belgilari.
26. Tarix asarlari manba sifatida.
27. Temuriylar davri matnshunosligi.
28. Yozma manbalarning vujudga kelishi va ularda real-tarixiy jarayonlarning aks ettirilishi qonuniyatları.
29. Uyg‘ur yozuvi va uning yodgorliklari.
30. She’riy va nasriy tarjimalarning o‘ziga xos xususiyatlari.
31. Islom va uning O‘rta Osiyoga kirib kelishi bilan bog‘liq holda shakllangan manbashunoslik, uning tarixiy taraqqiyoti.
32. Yozuvning paydo bo‘lishi.
33. Tarjima nusxalarni o‘rganishda asliyatning tutgan o‘rni.

34. Manbashunoslik tushunchasi. Adabiy manbashunoslik.
35. Markaziy Osiyoda eng qadimgi yozuv madaniyati.
36. Tarjima asarlarni asl matnga yaqinlashtirishda tarjimon mahorati.
37. Adabiy manbashunoslikning maqsad va vazifalari.
38. Turkiy adabiyotning eng qadimgi manbalari.
39. Qo‘lyozma kitob haqida tushuncha.
40. Klassik adabiyotimiz namoyandalarining asarlarini manbashunoslik nuqtai nazaridan o‘rganish.
41. Qadimgi turk-moniy adabiyoti namunalari.
42. Asar va uning versiyalari tushunchasi.
43. Ommabop nashrlar – transliteratsiya, tabdil, nasriy bayon va ularni nashrga tayyorlash prinsiplari.
44. Qadimgi turk-nasroniy adabiyoti namunalari.
45. Bir necha tilli matnlar va ularni o‘rganish.
46. Manbashunoslik tadqiqotlari yo‘nalishlari.
47. Qo‘lyozmalarni tavsiflash prinsiplari.
48. Majmualar, kulliyot va bayozlar, tazkiralar.
49. Qo‘lyozma manbalarni birlamchi tavsiflash.
50. Qur’on va uning turkiy tarjimalari.
51. Sharq kitobatchiligidagi bosma nashrlarning (toshbosma kitoblarning) paydo bo‘lishi.
52. Qo‘lyozma va toshbosmalarni dastlabki ko‘rib chiqish, ularni ilmiy tavsiflash.
53. Turkiy tafsirlar.
54. Ko‘p nusxali matnlarni tadqiq etish.
55. Manbalarning mazmuniga ko‘ra turlari.
56. Turk runiy yozuvi haqida umumiy ma’lumot.
57. Manbashunoslik tadqiqotlarining matnshunoslik tahlilidagi o‘rni.
58. Qo‘lyozma va toshbosmalarni tavsiflash va kataloglashtirish.
59. Uyg‘ur yozuvi haqida umumiy ma’lumot.
60. Hozirgi o‘zbek matnshunosligi, uning yutuqlari va o‘ziga yarasha muammolari.
61. Adabiyotshunoslikka oid manbalar.
62. Braxma, moniy yozuvlari haqida umumiy ma’lumot.
63. Islom davri matnshunosligining yuzaga kelishi.
64. Adabiyot tarixi, nazariyasiga oid manbalarning adabiy manbashunoslikdagi o‘rni.
65. Asar nusxalari ustida ishslash, ilmiy-tanqidiy matn uchun tayanch nusxani tanlash prinsiplari.
66. Matn tarixinini o‘rganish.
67. Tazkirachilik an’alarining shakllanishi va taraqqiyoti.
68. Asar qo‘lyozmalari va tayanch nusxa tushunchasi.
69. Manbalarning ilmiy nashri va uni yaratish yo‘llari.
70. Sharq matnshunosligida tarjima, sharh, bayon tushunchalari.
71. Markaziy Osiyoda qog‘oz ishlab chiqarish va kitob yaratish tarixi.
72. Ilmiy nashrni tayyorlashdagi tan olingan xalqaro normalar.
73. Adabiy manbashunoslik va uning o‘ziga xos xususiyatlari.
74. Kitobat san’ati tarixi.
75. XI–XIV asr matnshunosligining xususiyatlari.

76. Rus va o‘zbek olimlarining matnshunoslikka qo‘shgan hissalari.
77. Qadimgi Sharqilmiy-madaniy markazlarida kutubxonachilik.
78. Ilmiy nashrlar – transkripsiya, akademik nashr, faksimil nashr, ilmiy-tanqidiy matn va ularni nashrga tayyorlash prinsiplari.
79. Navoiy tazkiralari adabiy manba sifatida.
80. Qadimgi Sharq ilmiy-madaniy markazlarida kitob yig‘ish va uni saqlash an’analari.
81. Adabiy asarlar va tarixiy hujjatlar matnini ilmiy-tanqidiy o‘rganish.
82. Hozirgi o‘zbek manbashunosligi. Uning sohalari.
83. Hirot, Samarqand, Buxoro xattotlik maktablari.
84. Matnlarni ilmiy tadqiq etishning umumiy yo‘llari.
85. Manbalar tasnifini yaratish yo‘llari.
86. Bir nusxada saqlangan asar matni ustida ishslash, uni nashrga tayyorlash masalasi.
87. O‘tmishda kitobat san’ati.
88. Manbalarning turlari.
89. Qadimgi kitob va uning turlari.
90. Matnlarni nashrga tayyorlash. Nashr turlari: ilmiy, ilmiy-ommabop hamda ommabop nashrlar.

### **Kirish imtihonlari natijalarini baholash mezonlari**

Imtihonni baholash uchun maksimal baho – 100 ball etib belgilanadi.

JAMI 4 ta savolga: 100 ball, shundan:

1-savolga javob: maksimal – 25 ball;

2-savolga javob: maksimal – 25 ball;

3-savolga javob: maksimal – 25 ball.

4-savolga javob: maksimal – 25 ball.

Har bir savol bo‘yicha javoblarni baholash quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi:

–nazariy va amaliy bog‘liqlikda yoritilgan;

–mazmunni yoritishda mustaqil ilmiy mushohada;

–nom va ilmiy atamalarni bilish darajasi;

–ilmiy mushohada yuritish iqtidori to‘la ko‘rinsa;

–keltirilgan faktlar hozirgi davrdagi jarayonlar, o‘zgarishlar bilan o‘zaro aloqadorlikda ochib berilgan, chuqur ilmiy tahlil etilgan hamda xronologik jihatdan to‘g‘ri yoritilgan;

– o‘z fikrini tizimli mustaqil tahlil qilgan, erkin va mustaqil ifoda eta olgan;

– fikr aniq va izchil ifodalangan, barcha savollar mutlaqo to‘liq yoritilgan va bunda tegishli ilmiy adabiyotlarga tayanilgan;

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning asarlarida bayon qilingan tamoyillar va xulosalarga har tomonlama chuqur asoslangan javoblarga **a’lo** baho qo‘yiladi.

Barcha savollarga nisbatan to‘liq javob berilgan, fikr izchil ifodalangan, lekin bunda tegishli ilmiy va uslubiy adabiyotlarga kamroq e’tibor berilgan bo‘lsa, **yaxshi** baho qo‘yiladi.

Barcha savollarga qisman javob bera olgan va ma’lum darajada ilmiy, o‘quv-uslubiy adabiyotlaridan foydalangan bo‘lsa, **qoniqarli** baho qo‘yiladi.

Fikr aniq ifoda etilmagan, bironta ham savolga qisman bo‘lsada to‘g‘ri javob berilmagan, tegishli ilmiy, o‘quv-uslubiy adabiyotlardan mutlaqo foydalanilmagan javoblar uchun **qoniqarsiz** baho qo‘yiladi.

### **Fanni o‘zlashtirish bo‘yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar**

1. Аманжолов А. С. История и теория древнетюркского писма. Алматы, 2003.
2. Исҳоқов М. Сўғдиёна тарих чорраҳасида. Тошкент, 1990.
3. Исҳаков М. Сентралная Азия в системе мировой писменной культуры. Древность и раннее средневековье. Ташкент, 2009.
4. Исҳоқов М., Раҳмонов Н., Содиков Қ., Тўхлиев Б. Ўлмас обидалар (Ўзбекистон халқларининг қадимги ёзма ёдгорликлари бўйича тадқиқотлар). Тошкент, 1989.
5. Исҳоқов М., Содиков Қ., Омонов Қ. Мангу битиглар (Ўрта Осиё халқларининг энг эски ёзма ёдгорликлари бўйича тадқиқотлар). Тошкент, 2009.
6. Кази-Ахмед. Трактат о каллиграфах и художниках. М.-Л., 1947.
7. Каталог фонда института рукописей. В двух томах. Ташкент, 1988, 1989.
8. Каталог арабских рукописей ин-та народов Азии (1-3 вып.). М., 1960-1965.
9. Лихачев Д. С. Текстология (на материале русской литературы X-XVII вв.). М.-Л., 1962, 1983.
10. Лихачев Д. С. Текстология. Краткий очерк. М.-Л., 1964.
11. Муниров Қ. Шарқ қўлъёзмалари. Тошкент, 1962.
12. Муродов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. Тошкент, 1971.
13. Эшмуҳамедова М. “Девони ҳикмат” қўлъёзмалари. Тошкент, 2003.
14. Рейсер С. А. Основы текстологии. Л., 1978.
15. Рукописная культура народов Востока. Очерки. Кн. И. М., 1987.
16. Собрание восточных рукописей АН УзССР. / 2, 3; 5-8; 10, 11 томлар. – Тошкент, 1954–1987.
17. Содиков Қ. Уйғур ёзуви тарихи (манбашунослик ва китобат тарихи масалалари). Тошкент, 1997.
18. Содиков Қ. Кўк турк битиглари: матн ва унинг тарихий талқини. Тошкент, 2004.
19. Содиков Қ. Эски туркий битиглар. Тошкент, 2009.
20. Содиков Қ. “Кутадғу билиг”нинг уйғур ёзувли хирот нусхаси. Тошкент, 2010.
21. Содиков Қ., Омонов Қ. Туркий ҳужжатчиликнинг тарихий илдизлари. Тошкент, 2012.
22. Содиков Қ. Алишер Навоий. Мухокамату-л-луғатайн. Қосимжон Содиков таҳлили, табдили ва талқини остида. – Тошкент: «Akademnashr», 2017.
23. Содиков Қ. Матншунослик ва манбашунослик асослари. Филология ва тилларни ўқитиш (мумтоз тиллар бўйича) таълим йўналишида ўқиётган талабалар учун ўқув қўлланма. Тошкент давлат Шарқшунослик институти, 2017.
24. Содиков Қ. Қадимги туркий халқларда шаҳарчилик, ўтрок дехқончилик маданияти ва яйлов турмуш тарзи. Тошкент давлат Шарқшунослик институти, 2017.
25. Содиков Қ. Илк ва ўрта асрларда Марказий Осиёда кечган этно-лингвистик жараёнлар. – Тошкент: «Akademnashr», 2018.

26. Содиков Қ. Адиб Аҳмад Юғнакий. Ҳибату-л-ҳақойик. Қосимжон Содиков транскрипцияси, талқини ва таҳлилида. – Тошкент: «Akademnashr», 2019.
27. Содиков Қ. «Қутадғу билиг» сўзлиги. Тузувчи: Қосимжон Содиков. – Тошкент: «Akademnashr», 2020.
28. Фирдоуси. Шахнаме. Критический текст. Т. ИИ, М., 1960.
29. Қаюмов А., Исҳоқов М., Отахўжаев А., Содиков Қ. Қадимги ёзма ёдгорликлар. Тошкент, 2000.
30. Халидов А. Б. Арабские рукописи и арабская рукописная традитсия. М., 1965.
31. Халидов А. Б. Книжная культура. - Сб.: Очерки истории арабской культуры В - XV вв. М., 1982.
32. Ҳожа Аҳмад Яссавий. “Девони ҳикмат”нинг йиғма-қиёсий матни. Нашрга тайёрловчи М. Эшмуҳамедова. Тошкент, 2008.
33. Шамсиев П. Ўзбек матншунослигига оид тадқиқотлар. Тошкент, 1986.
34. Ҳабибуллаев А. Адабий манбашунослик ва матншунослик. Тошкент, 2000.
35. Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттолар. Тошкент, 1991.
36. Ҳакимов М. Навоий қўлёзмаларининг тавсифи. Тошкент, 1983.
37. Ҳасанов М. Шарқ қўлёзмаларини тавсифлаш ва фиҳристлаш. Тошкент, 1994.
38. Ҳасаний М., Ҳабибуллаев А. Адабий манбашунослик ва матншуносликнинг назарий масалалари. Тошкент, 2012.
39. Фаниева С., Содиков Қ. Ёзув тарихи ва китобат санъати. Тошкент, 2006.

### **Dissertatsiyalarning avtoreferatlari**

1. Ахунджанов Э. А. Историко-типологическое исследование истории книги и книжного дела в Туркестане: древность, средние века. АДД. Ташкент, 1998.
2. Бекчанов И. Тазкире “Музаккири ахбаб” Ҳасанходжа Нисари и узбекская литература XVI века (в аспекте источниковедения и текстологии). АКД. Ташкент, 1993.
3. Ирисов А. Литературное Наследие Ибн Сины (источник и своеобразие художественного творчества). АДД. Ташкент, 1996.
4. Исҳоқов М. Гулханий “Зарбулмасал”ининг илмий-танқидий матни. Тошкент, 1997.
5. Мадраимов Х. А. “Кимйā-йисаāдат” Абу Ҳамида Газали и его переводы на тюрки. АКД. Ташкент, 2000.
6. Маннанов А. М. Рошанийская литературная школа на пушту в XВИ-ХВИИ вв. (Источники и проблемы реконструкции). АДД. Ташкент, 1996.
7. Йўлдошев И. А. Ўзбек ёзма адабиётидаги “Чор дарвеш” асарининг қўлёзма манбалари ва матний тадқиқи. НДА. Тошкент, 1998.
8. Эркинов А. С. Источники интерпретации “Хамса” Алишера Навои в XV-XX вв. АДД. Ташкент, 1998.
9. Рашидова М. Х. Текстологическое исследование произведения Алишера Навои “Назм ул-джавахир”. АКД. Ташкент, 1991.
10. Ризаев Ш. Т. Ўзбек жадид драматургиясининг шаклланиш манбалари. НДА. Тошкент, 1995.

11. Самандарова С. Э. XX аср ўзбек тазкиралари. НДА. Тошкент, 1996.
12. Сирожиддинов Ш. С. Алишер Навоий ҳаёти ва фаолиятига оид XV-XIX асрларда яратилган форс-тожик манбалари (Қиёсий типологик-текстологик таҳлил). ДДА. Тошкент, 1998.
13. Турдалиев Л. Маҳмуд Ҳаким Яйфаний адабий ва илмий меросининг манбалари. НДА. Тошкент, 1997.
14. Турсунов Ю. “Муншаот” – как историко-литературный источник в изучении жизни и деятельности Алишера Навои. АКД. Ташкент, 1986.
15. Ҳамидова М.Ш. Алишер Навоий “Садди Искандарий” достонининг илмий-танқидий матни ва матний тадқики. ДДА. Тошкент, 1994.
16. Ҳурматжон Абдураҳмон. Уйғур шоири Харобатий ва унинг адабий мероси. НДА. Тошкент, 2003.
17. Алимухамедов Р.А. Қадимги турк-моний адабиёти манбалари. ДДА. Тошкент, 2016.
18. Мадалиева О.Р. Навоий девонлари қўлёзмаларининг таркибий-қиёсий тадқики (ЎзР ФА Шарқшунослик институти фонди қўлёзмалари асосида). ФД (PhD) автореферати. Тошкент, 2021.